ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 05.07.2025 · Принята: 26.07.2025 · Опубликована: 31.08.2025
DOI: https://doi.org/10.64681/0gkng457

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 1(4), 2025
www.jnculture.uz

Komil Xorazmiyning ilmiy-ijodiy merosi

(The Scholarly and Creative Legacy of Komil Khorezmi)

Abdullayev Ravshanbek

Institute of Art Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,
Tashkent, 100029, Mustaqillik, 2.
Uzbekistan/ Tashkent
E-mail: navogar99@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Komil Xorazmiyning o‘zbek musiqa madaniyati tarixidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Unda bastakor, musiqashunos va ma’rifatparvar sifatidagi faoliyati, xususan, uning «tanbur chizig‘i» deb nomlanuvchi musiqiy yozuv tizimiga asos solishi tahlil qilinadi. Ushbu usul o‘z davri uchun noyob fenomen bo‘lib, Xorazm maqomlarini qayd etishda va ularni keyingi avlodlarga yetkazishda muhim manba sifatida baholanadi. Shuningdek, maqolada Komil Xorazmiyning Xiva madaniy muhitidagi mavqei, uning adabiy, xattotlik, tarjimonlik va davlat boshqaruvi sohasidagi merosi hamda ilmiy-ijodiy faoliyatining ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Alohida e’tibor uning «Devoni Komil» asariga, maqomot tizimidagi yangiliklariga hamda ta’lim sohasidagi tashabbuslariga, jumladan, rus-tuzem maktabi tashkil etilishiga qaratiladi. Olimning musiqiy va ilmiy merosi Xorazm mumtoz musiqasi rivojida, shuningdek, umuman o‘zbek musiqa madaniyatining shakllanishida muhim bosqich sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa, Komil Xorazmiyning faoliyati an’ana va yangiliklar uyg‘unligining yorqin namunasi sifatida baholanib, bugungi kunda ham ilmiy va madaniy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Kalit so‘zlar: Komil Xorazmiy, Xorazm musiqa madaniyati, maqom an’analari, tanbur chizig‘i, o‘zbek musiqa tarixi, musiqiy meros, ma’rifatparvarlik, musiqashunoslik.

Abstract

The article examines the role of Komil Khorezmi in the history of Uzbek musical culture at the turn of the nineteenth and twentieth centuries. It analyzes his activities as a composer, musicologist, and educator, particularly his establishment of the musical notation system known as the “tanbur notation.” This method is presented as a unique phenomenon of its time and an important source for recording the Khorezm maqoms and transmitting them to future generations. The article highlights Khorezmi’s significance in the cultural environment of Khiva, his literary, calligraphic, translational, and administrative legacy, as well as the interconnection of his scholarly and creative work with the ideas of enlightenment. Special attention

is given to his work “Divan-i Komil”, his innovations in the maqom system, and his educational initiatives, including the establishment of the Russo-native school. Khorezmi’s musical and scholarly heritage is interpreted as a crucial stage not only in the development of Khorezm classical music but also in the formation of Uzbek musical culture as a whole. Thus, the activity of Komil Khorezmi appears as an example of the synthesis of tradition and innovation, retaining its scientific and cultural significance in the modern context.

Keywords: Komil Khorezmi, Khorezm musical culture, maqom traditions, tanbur notation, history of Uzbek music, musical heritage, enlightenment, musicology.

Аннотация

В статье рассматривается роль Комила Хорезми в истории узбекской музыкальной культуры конца XIX – начала XX вв. Анализируется его деятельность как композитора, музыковеда и просветителя, в частности основание им системы музыкальной записи, известной под названием «танбурная нотация». Этот метод представлен как уникальный феномен своего времени и важный источник для фиксации хорасмийских макомов и их передачи последующим поколениям. Раскрывается значение Комила Хорезми в культурной среде Хивы, его литературное, каллиграфическое, переводческое и административное наследие, а также связь научно-творческой деятельности с идеями просвещения. Особое внимание уделяется его произведению «Диван-и Комил», нововведениям в системе макомат и инициативам в образовательной сфере, включая создание русско-туземной школы. Музыкальное и научное наследие ученого рассматривается как важный этап не только в развитии классической музыки Хорезма, но и в формировании узбекской музыкальной культуры в целом. Таким образом, деятельность Комила Хорезми предстает как пример синтеза традиции и новаторства, сохраняющий научную и культурную значимость в современном контексте.

Ключевые слова: Комил Хорезми, хорезмийская музыкальная культура, макомные традиции, танбурная нотация, история узбекской музыки, музыкальное наследие, просветительство, музыковедение.

1892-yilda Komil Xorazmiy Toshkentga tashrif buyurib, tipolitografiya, teatr, gimnaziya va maktablar, shuningdek, kasalxonalar hamda gazeta muharririyatlari faoliyati bilan tanishadi. O‘rta asr an’analari hukmron bo‘lgan Xiva saroyi muhitidan kelgan shoir uchun Toshkent hayoti tubdan yangicha, zamonaviy sharoitni namoyon etar edi.

Shoir umrining so‘nggi yillarida og‘ir xastalikdan aziyat chekib, ko‘zlarida qora suv kasali rivojlanadi. 1897-yilda Toshkentda bo‘lganida u kasalxonalarda davolanishga harakat qilsa-da, bu muolajalar kutilgan natijani bermaydi. Nihoyat, 1899-yilda Komil Xorazmiy 74 yoshida Xiva shahrida vafot etadi. Biroq undan boy adabiy va musiqiy meros – she’rlar, g‘azallar, maqom kuylari, tanbur chizig‘i, shuningdek, yoshlarni dunyo ilmi va yangi usul maktablarga qiziqtirish yo‘lidagi sa’y-harakatlar qoladi. Uning xizmatlari nafaqat Xorazm, balki butun Markaziy Osiyo madaniy taraqqiyoti uchun beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Muhammad Rahimxon Soniy uchun Komil Xorazmiy ustoz darajasida bo‘lib, davlat boshqaruvida unga muhim maslahat va ko‘mak bergan.

Komil Xorazmiy tanbur chizig‘ida maqomlarni notalashtirish ishlarini oxiriga yetkaza olmagan bo‘lsa-da, bu jarayonni uning o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzo davom ettirgan. Shoir, shuningdek, Xorazmning ko‘plab maqom ustalariga ham rahnamolik qilgan. Jumladan, Muhammad Yoqub Xarrotni o‘z farzandi sifatida qabul qilib, unga ta’lim va tarbiya bergan. Natijada Muhammad Yoqub Xarrot o‘z davrining eng yetuk sozanda, xonanda va maqomdonlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda uning ijrosidagi Xorazm maqomlari gramplastinkalarga yozilgan bo‘lib, San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti audiofondida saqlanmoqda. Mazkur ijro an’analari bevosita Komil Xorazmiy va Muhammad Rasul Mirzo ijodiy merosi asosida shakllangani alohida e’tiborga loyiqdir.

Tanbur chizig‘iga yozilgan Xorazm maqomlari uzoq vaqt davomida xivalik hofiz Allonazar uyida saqlanib kelgan. 2002-yilda mazkur qo‘lyozma O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovga sovg‘a qilingan. Hozirgi kunda uning ikkita asl nusxasi O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi muzeyida saqlanmoqda.

Komil Xorazmiyni ko‘p qirrali ijodkor sifatida baholash mumkin. U davlat arbobi, xattot, shoir, bastakor, sozanda, musiqashunos va maqomchilarga ustoz sifatida tarixda muhrlangan. Xorazmga fortepiano, gramofon va patifon kabi cholg‘u

va texnik vositalarni birinchi bo‘lib olib kelgan ham Komil Xorazmiydir. Uning zamonaviy ilm, musiqa cholg‘ulari va keng dunyoqarashga asoslangan faoliyati keyinchalik o‘z samarasini bergan.

Bugungi kunda Komil Xorazmiyning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Xorazm viloyatida qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, shoirdan qolgan uy muzeyi faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, Xorazm viloyati, Shovot tumanida «Komil Xorazmiy-1», «Komil Xorazmiy-2», «Komil Xorazmiy-3» va «Komil Xorazmiy-4» nomli ko‘chalar mavjud bo‘lib, ularning nomlari Xorazm viloyati mahalliy kengashining 2022-yil 29-avgustdagi qarori bilan rasmiylashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyot

1. Azizov, Bobojon Tarrox. *Xorazm navozandalari*. Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 1994.
2. Rahim, Davlatyor; Matrasul, Shixnazar. *Feruz*. Toshkent: Ekstremum press, 2011, 348 b.
3. Xomidiy, Hamidjon; Hasaniy, Mahmud. *Mashriqzamin hikmat bo‘stoni*. Toshkent: Sharq, 1997, 251 b.
4. Matyoqubov, Otanazar. *Maqomot*. Toshkent: Musiqa, 2004.
5. Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li; Devonzoda, Muhammad Yusuf. *Xorazm musiqa tarixchasi*. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014.
6. Yusupov, M. *Xorazm maqomlari*. III tom. Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 1980, 550 b.
7. Мак-Гахан, Я. *Военные действия на Оксусе и падение Хивы*. Москва: В Университетской типографии (Катков и К°), 1875, 304 стр.

8. Mukhamedzhanov, A. R.; Nigmatov, T. *Bukhoro va Xevaning Rossiya bilan munosabatlariga doir ba'zi manbalar*. Toshkent: O'zSSR FA nashriyoti, 1957, 169 b.

References

1. Azizov, Bobojon Tarrox. *Xorazm navozandalari* [Khorezm Performers]. Tashkent: G'afur G'ulom, 1994.
2. Rahim, Davlatyor, and Shixnazar Matrasul. *Feruz*. Tashkent: Ekstremum Press, 2011.
3. Khomidiy, Hamidjon, and Mahmud Hasaniy. *Mashriqzamin hikmat bo'stoni* [Garden of Wisdom of the Eastern Lands]. Tashkent: Sharq, 1997.
4. Matyoqubov, Otanazar. *Maqomot* [The Maqom Tradition]. Tashkent: Musiqa, 2004.
5. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, and Muhammad Yusuf Devonzoda. *Xorazm musiqa tarixchasi* [History of Khorezm Music]. Tashkent: Mumtoz So'z, 2014.
6. Yusupov, M. *Xorazm maqomlari* [Khorezm Maqoms]. Vol. 3. Tashkent: G'afur G'ulom, 1980.
7. Mak-Gakhan, Ya. A. *Voennye deistviya na Oksuse i padenie Khivy* [Military Actions on the Oxus and the Fall of Khiva]. Moscow: V Universitetskoi tipografii (Katkov i K°), 1875. (in Russian)
8. Mukhamedzhanov, A. R., and T. Nigmatov. *Bukhoro va Khevaning Rossiya bilan munosabatlariga doir ba'zi manbalar* [Some Sources on the Relations of Bukhara and Khiva with Russia]. Tashkent: UzSSR FA Nashriyoti, 1957. (in Uzbek/Russian)